

**ABADIY MEROS VA ZAMONAVIY DIZAYN UCHRASHUVI:  
“SAB’AI SAYYOR” TASVIRLARI ORQALI INTERYER SAN’ATI**

*Haqberdiyeva Sagina Shomurot qizi,  
O’zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti  
O’zbek tili va adabiyoti kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi  
[saginka2405@mail.ru](mailto:saginka2405@mail.ru)*

**Annotatsiya.** Maqolada tarixiy meros va zamonaviy interyer dizayni o’rtasidagi uyg‘unlik tahlil qilinib, Alisher Navoiyning “Sab’ai Sayyor” dostonidagi yetti qasr tasvirlari asosida madaniy va estetik elementlarni qo’llash imkoniyatlari yoritiladi. Tadqiqotda har bir qasrning rang, shakl va ramziy ma’nosini tahlil qilinib, ularning interyer dizayniga ilhomlantiruvchi ta’siri muhokama qilinadi. Shuningdek, ranglarning psixologik ta’siri, naqsh va ornamentlar orqali madaniy identifikasiya hamda tarixiy obrazlarning zamonaviy interyerlarga moslashtirilishi masalalariga e’tibor qaratiladi. Tarixiy merosni zamonaviy san’at bilan uyg‘unlashtirish dizaynga chuqur ma’naviy mazmun bag’ishlashi ta’kidlanadi.

**Kalit so’zlar.** Abadiy meros, zamonaviy interyer dizayni, Sab’ai Sayyor tasvirlari, tarixiy elementlar, estetika, ramziy ma’no, interyer tahlili.

**“EBEDÎ MİRAS VE MODERN TASARIM BULUŞMASI:  
“SAB’AI SAYYAR” TASVİRLERİYLE İÇ MEKÂN SANATI**

*Hakberdiyeva Sagina Şomurot kızı,  
Özbekistan-Finlandiya pedagoji enstitüsü  
Özbek dili ve edebiyati bölümü bağımsız araştırmacısı*

**Özet.** Bu makalede, tarihi miras ile modern iç mekân tasarımları arasındaki uyum analizi edilerek, Ali Şir Nevai’nin Seb’-a-i Seyyare mesnevisindeki yedi saray tasvirleri temelinde kültürel ve estetik unsurların uygulanma olanakları ele alınmaktadır. Araştırmada her bir sarayın renk, şekil ve sembolik anıtları incelenerek, iç mekân tasarımlına ilham veren etkileri tartışılmaktadır. Ayrıca, renklerin psikolojik etkisi, motif ve süslemelerle kültürel kimlik oluşturma süreci ve tarihi imgelerin modern iç mekânlara uyarlanması gibi konulara özel önem verilmektedir. Tarihi mirasın modern sanatla uyumlaştırılmasının tasarıma derin bir manevi anlam kattığı vurgulanmaktadır.

**Anahtar kelimeler:** Ebedî miras, modern iç mekân tasarımları, Seb’-a-i Seyyare tasvirleri, tarihi unsurlar, estetik, sembolik anlam, iç mekân analizi.

**ВЕЧНОЕ НАСЛЕДИЕ И СОВРЕМЕННЫЙ ДИЗАЙН:  
ИСКУССТВО ИНТЕРЬЕРА ЧЕРЕЗ ИЗОБРАЖЕНИЯ “САБ’АИ САЙЁР”**

*Хакбердиева Сагина Шомурот кизи,  
соискатель кафедры узбекского языка и литературы  
Узбекско-Финского педагогического института*

**Аннотация.** В данной статье анализируется гармония между историческим наследием и современным интерьерным дизайном, а также рассматриваются возможности применения культурных и эстетических элементов на основе изображений семи дворцов из поэмы Алишера Навои «Сабай Сайяр». В исследовании детально изучаются цветовые, формальные и символические особенности каждого дворца, а также их влияние на интерьерный дизайн. Особое внимание уделяется психологическому воздействию цветов, формированию культурной идентичности через орнаменты и узоры, а также адаптации исторических образов в современном интерьере. Подчеркивается, что интеграция

исторического наследия с современным искусством придаёт дизайну более глубокий духовный смысл.

**Ключевые слова.** Вечное наследие, современный интерьерный дизайн, изображения Сабаи Сайяр, исторические элементы, эстетика, символическое значение, интерьерный анализ.

## ETERNAL HERITAGE AND MODERN DESIGN: INTERIOR ART THROUGH THE IMAGES OF "SAB'AI SAYYOR"

*Hakberdiyeva Sagina Shomurot qizi ,  
independent researcher at the department of uzbek language and literature  
Uzbek-Finish pedagogical institute*

**Abstract.** This article analyzes the harmony between historical heritage and modern interior design, exploring the possibilities of integrating cultural and aesthetic elements based on the depictions of the seven palaces from Alisher Navoi's Sab'ai Sayyor poem. The study examines the unique architectural and symbolic characteristics of each palace, focusing on their impact on interior design. Special attention is given to the psychological effects of colors, the role of ornaments in cultural identity formation, and the adaptation of historical imagery into contemporary interiors. The research highlights how the fusion of historical heritage with modern art enriches design with a deeper spiritual meaning.

**Keywords.** Eternal heritage, modern interior design, Sab'ai Sayyor depictions, historical elements, aesthetics, symbolic meaning, interior analysis.

Ma'lumki, zamnaviy interyer dizayni nafaqat estetik va funksional talablarni qondirishga qaratilgan jarayon, balki tarixiy va madaniy merojni saqlash hamda uni zamon talablariga mos tarzda qayta yaratish bilan uzviy bog'liqidir. Bugungi kunda dizaynerlar milliy va madaniy qadriyatlarni aks ettiruvchi elementlarni o'z ishlarida uyg'unlashtirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Xususan, Alisher Navoiyning "Sab'ai Sayyor" asaridagi tasvirlar zamnaviy interyer dizayni uchun ilhom manbai sifatida katta ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu tasvirlar chuqur falsafiy va estetik mazmuni bilan zamnaviy dizaynga yangi ruh bag'ishlaydi.

"Sab'ai Sayyor" Alisher Navoiyning "Xamsa"ning to'rtinchisi dostoni bo'lib, unda inson ruhiyatining yuksalishi, koinot go'zalligi va hayotning falsafiy mohiyati kabi mavzular aks ettirilgan. Dostonning asosiy qismi yetti qasr tasviridan iborat. Har bir qasr o'ziga xos rang, shakl va estetik uslub bilan ifodalanib, insoniyatning ichki ma'naviy o'sishini ramziy tarzda tasvirlaydi.

Qasrlarning turli xil obrazlari zamnaviy interyer dizayni uchun boy ilhom manbai bo'lib xizmat qilishi mumkin. Ushbu obrazlar nafaqat tashqi ko'rinishda, balki ichki mazmun va falsafiy talqinlarda ham ishlataladi. "Sab'ai Sayyor" yetti qasr orqali sayyoralar, ranglar va inson fazilatlarini bir butun yaxlitlikda ifoda etadi. Ranglarning ramziy ma'nosi va qasrlarning mantiqiy ketma-ketligi inson ruhiyatining turli qirralarini ochib beradi. Ushbu tasvirlarni zamnaviy dizaynga olib kirish interyerga nafaqat estetik go'zallik, balki falsafiy va ma'naviy chuqurlik ham qo'shadi.

Inson ruhiyat-hayotning turli ranglarini aks ettiruvchi oynadir. Har bir rang hissiyotlarni uyg'otadi, kayfiyatga ta'sir ko'rsatadi va ongimizni boshqaradi. Bahromning yetti kunlik hayoti, ranglar orqali, uning ruhiy holati va hissiy kechinmalarining o'zgarishini mahorat bilan ochib beradi. Adib mazkur hikoyasida inson qalbining ichki kurashlarini va o'sishini quyidagicha ramziy ma'nolarda tasvirlashga harakat qilgan.

### Shanba: Qora rang-qayg'u va ichki iztirob.

Qora rang inson ruhiyatida yo'qotish va qayg'u belgisi sifatida qaraladi. Bahromning shanba kuni-hijron va firoqning eng chuqur bosqichi. Mushkfon liboslari va qaro kabi tasvirlar shoh qalbidagi og'irlilikni aks ettiradi. Ammo ruhiy jihatdan qora rang nafaqat qayg'uni, balki ichki

kuchning yig'ilishini ham anglatadi. Qayg'u insonni yangi bosqichga tayyorlaydi. Bahromning qora tuni shuni ko'rsatadiki, har qanday tun o'z tongini olib keladi [8,7 b.J.

**Yakshanba: Sariq rang-umid va quvvat uyg'onishi.**

Sariq rang-ijobiylit, quvonch va aqliy uyg'onish ramzi hisoblanadi. Bahromning yakshanba kuni uning ichki dunyosida yangi umidlarning uchqunlanishi bilan boshlanadi. Zarrin qasr va quyosh nuriga o'xshash tasvirlar ruhiy energiya va yangi imkoniyatlarni bildiradi. Psixologik jihatdan sariq rang insonni harakatga undaydi, hayotga bo'lgan ijobjiy qarashni kuchaytiradi [8,8 b.J.

**Dushanba: Yashil rang-barqarorlik va tiklanish.**

Yashil rangning ruhiyatga ta'sir qiladigan kuchli ramz bo'lib, sokinlik, barqarorlik va tiklanishning belgisi hisoblanadi. Dushanba kuni Bahrom yashil rangli qasrda o'zining ichki kuchlarini qayta tiklaydi. Zumrad qadah va hayot suvi tasvirlari ruhiy jihatdan yangi kuch va tiriklikni anglatadi. Bu rang Bahromning ruhiyatida tinchlik va barqarorlikka intilish paytini aks ettiradi [8,8 b.J.

**Seshanba: Qizil rang-ehtiros va hayot zavqi.**

Qizil rang-ehtiros, shiddat va energiya manbai hisoblanadi. Bahromning qizil gulnor qasrda o'tkazgan kuni hayotning mazmunini qayta his qilish va qalbdagi jo'shqinlikni ifodalaydi. Yoqut qadah va gulrang libos tasvirlari orqali qizil rangning kuchli ta'siri aks etadi. Psixologiyada qizil rang odamni kuchli harakatlar qilishga va o'z tuyg'ularini ochiq ifodalashga ilhomlantiradi [8,8 b.J.

**Chorshanba: Moviy rang-ichki xotirjamlik va osmoniy orom.**

Moviy rang inson ruhiyatida xotirjamlik va sokinlikni uyg'otadi. Chorshanba kuni Bahrom moviy qasrda ichki dunyosining osoyishtaligini his qiladi. Feruza qadah va osmon rangli liboslar shohning qalbidagi muvozanatni va ongdagi tozalikka intilishni aks ettiradi. Ruhiy jihatdan moviy rang tanglik holatini kamaytiradi va insonni ichki xotirjamlikka yetaklaydi [8,10 b.J.

**Panjshanba: Oltin rang-muvaffaqiyat va baxt jilosи.**

Oltin rang-shon-shuhurat, muvaffaqiyat va ilhom ramzi sifatida tasvirlanadi. Bahromning panjshanba kuni hayotining eng yorqin lahzalarini aks ettiradi. Zarrin qadah va oltin qasr tasvirlari ruhiyatda o'z kuchini his qilish va o'ziga bo'lgan ishonchni uyg'otadi. Ruhiy holat nuqtai nazaridan oltin rang insonning o'z yutuqlaridan zavqlanishini va hayotning go'zalligini his qilishini bildiradi [8,10 b.J.

**Juma: Oq rang-poklanish va yangi sahifa.**

Oq rang ruhiyatda poklik va yangi boshlanish belgisi sifatida tasvirlanadi. Haftaning so'nggi kuni Bahrom yangi tongni oppoq qasrda kutib oladi. Oq rang uning ichki dunyosining tozaligini, ruhiy va ma'naviy yangilanishini aks ettiradi. Bu kun-inson hayotidagi yangilanish bosqichining boshlanishidir [8,11 b.J.

Bahromning yetti kunlik hikoyasi inson ruhiyatining ranglar orqali tasviridir. Qora qayg'udan oq poklanishgacha bo'lgan yo'l, insonning o'z hissiyotlari bilan kurashishidan va hayotining yangi ma'nolarini kashf qilishidan dalolat beradi.

Ranglar inson qalbining o'zgarishini ko'rsatadi: har qanday tun o'z tongiga ega, har qanday hijron o'z visoliga yetaklaydi.

"Ranglar faqat ko'zga emas, qalbga ham ta'sir qiladi. Ranglar ruhiyatning so'zsiz tili, hayotning ichki ma'nolaridir."

Quyidagi jadvalda qasrlarning ramziy ma'nolari, ularning zamonaviy interyer dizaynidagi talqinlari hamda qo'llanilishi haqida ma'lumot berilgan.

| <b>Qasr</b>                        | <b>Sayyora</b> | <b>Dostondagi tavsif</b>  | <b>Zamonaviy interyer dizayndagi qo'llanilishi</b>   |
|------------------------------------|----------------|---|--|
| <b>Qora qasr<br/>(shanba kuni)</b> | Zuhul (Saturn) | Zulmat ramzi sifatida, chuqur ma'noli, sirli, og'irlilik va qo'rquv | Qora rang zamonaviy minimalistik va dramatik interyerlarda ishlataladi. U jiddiyat, nafislik, qulaylik va soddalikni ifodalaydi. |

|  |                    |  |  |
|--|--------------------|--|--|
|  |                    | belgisi [3,344 b.]   | Yorug‘ ranglar bilan uyg‘unlashadi.  |
| <b>Sariq qasr<br/>(yakshanba kuni)</b>     | Quyosh             | Quyosh va oltinning timsoli, boylik va ulug‘vorlikni aks ettiradi [3,344 b.]   | Zamonaviy interyerdagi oltin naqshlar, yoritgichlar va tanatanavor aksessuarlar bilan bezatilgan fazolar hashamatni ko‘rsatadi.                                    |
| <b>Yashil qasr<br/>(dushanba kuni)</b>     | Qamar (Oy)         | Tabiat va hayotiylik ramzi, yangi boshlanishni ifodalaydi [3,345 b.]   | Interyerni ekologik uyg‘unlashtirishda yashil rang ishlatiladi. Tabiiy materiallar va yashil o‘simliklar osoyishtalik va yangilanishni ta’minlaydi.                |
| <b>Qizil qasr<br/>(seshanba kuni)</b>      | Mirrix( Mars)      | Olov va ehtirosni aks ettiradi. Kuchli his-tuyg‘ularni ifodalaydi, energiya va hayotiy harakat ramzi sifatida keltiriladi [3,345 b.] | Qizil rang zamonaviy dizaynda dramatik aksent sifatida ishlatiladi. Jozibali pardalar, gilamlar va devor dekorlarida qizil elementlar ta’minlaydi.                 |
| <b>Moviy qasr<br/>(chorchanba kuni)</b>    | Utorud(Merkuriy)   | Osoyishtalik, tinchlik va ma’naviy uyg‘unlikni belgisi [3,345 b.]  | Moviy rang dam olish xonalari va suv elementlariga yaqin bo‘lgan joylarda ishlatiladi. Zamonaviy dizaynda vannaxonalarda va basseyn atrofida eng ko‘p ishlatiladi. |
| <b>Olovrang qasr<br/>(panjshanba kuni)</b> | Mushtariy(Yupiter) | Quyoshning botishini, issiq energiya va donalik aks ettiradi [3,346 b.]  | Zamonaviy dizaynda bu rang yoritish tizimlarida, shinamlik yaratadigan bronza dekorlarda va devorlarda aks ettiriladi.   |
| <b>Oq qasr<br/>(juma kuni)</b>             | Zuhra (Venera)     | Soflik, poklik va yuksaklik ramzi [3,346 b.]   | Oq rang minimalistik dizaynda kenglik va yorqinlik yaratish uchun ishlatiladi. Shuningdek, yorug‘lik manbalari bilan uyg‘unlashadi.                                |

Bugungi kunda interyer dizaynda estetik ko‘rinish bilan birga ma’naviy va ramziy ma’nolar ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. “Sab’ai Sayyor” dostonida tasvirlangan ranglar va ramziy tasvirlari zamonaviy dizayn elementlari orqali uyg‘unlashib, ichki makonlarni nafaqat bezatadi, balki ma’nolar bilan boyitadi. Ranglarning ruhiyatga ta’siri, materiallarning to‘g‘ri tanlanishi va yorug‘likning uyg‘unligi makonni yanada boy qildi.

Asarda ifodalangan ranglar ishlatilagan naqshlar nomlari va ularning zamonaviy talqinini quyidagi jadvalda tasvirlashga harakat qildik

| <b>Dostondagi qasr naqshlari</b> | <b>Dostondagi tavsif</b>  | <b>Zamonaviy interyer dizayndagi qo’llanilishi</b>                                |
|----------------------------------|---|---|
| <b>Islimiq naqshlar</b>          | Cheksizlik, hayotning davomiyligini aks ettiradi.                 | Arabeska naqshlari yog‘och panellar, gilamlar yoki metal bezaklarda qo’llaniladi. |
| <b>Geometrik naqshlar</b>        | Tizimli va mutanosib ko‘rinish, tartib va uyg‘unlikni ifodalaydi. | Mozaik plitkalar, geometrik devor qoplamlari va shift bezaklari.                  |
| <b>Tabiiy naqshlar</b>           | Tabiat bilan bog‘liq gul va barg shakllari.                       | Yostiqlar, devor qog‘ozlari va gilamlar uchun dekor sifatida                      |

|                                |   |  |
|--------------------------------|---|--|
|                                |   | ishlatiladi.   |
| <b>Gumbazlar va taxtlar</b>    | Uyg ‘unlik va hukmronlik belgisi sifatida, har bir qasrda diqqat markazidagi element sifatida tasvirlangan. | Markaziy element sifatida foydalilanildi: hashamatli kreslo yoki dumaloq shiftlar dizayni. |
| <b>Bog‘ va suv elementlari</b> | Tabiiy go‘zallik, sokinlik va uyg‘unlik belgisi.  | Ichki bog‘lar, mini-favvoralar yoki ichki hovuzlar.  |

Ushbulardan ko‘rinib turibdiki, Alisher Navoiy davrida ham binolarning ichki bezaklarida turli xil ranglar va naqshlar qo‘llangan. Ular bizning davrimizga kelib, biroz nomlari o‘zgarib zamonaviylashgan.

Xulosa qilib aytganda, tarix, madaniyat va ruhiyat uyg‘unligi “Sab’ai Sayyor” va “Yetti Qasr” tasvirlari asosida zamonaviy interyer dizayniga chuqur ma’no bag‘ishlaydi. Ushbu dostonidagi ranglar inson ruhiyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatib, interyerda rang terapiyasi sifatida qo‘llanilishi mumkin. Ranglarning uyg‘unligi makonlarni nafaqat estetik, balki ma’noli qilib, inson his-tuyg‘ulariga ta’sir o‘tkazadi. Mumtoz dizayn yondashuvlari tarixiy merosni zamonaviy tendensiyalar bilan uyg‘unlashtirib, milliylik va ma’naviy qadriyatlarni saqlashga xizmat qiladi. Shu tariqa, tarixiy ranglar zamonaviy interyerlarni ruhiy boshpanaga aylantirib, inson qalbi va ongiga tinchlik, ilhom va o‘zlikni anglash imkonini beradi.

#### **Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Alisher Navoiy. “*Sab’ai sayyor*”. O‘n jildlik. Yettinchi jild. 1977. Toshkent. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyoti, 176 b.
2. Alisher Navoiy. “*Xamsa*”. “*Sab’ai sayyor*”. 2021, Tamaddun. 448 b.
3. Academic Research in Education Sciences, 3-soni, 2022. 596-602 b.
4. Amanullayev Abdinabi Abdimuminovich. “*Akademik rangtasvir*”. 2023. NamDU nashriyoti, 298 b.
5. Rashidov O. “*Sharq adabiyoti va falsafiy ramzlar*”. 2024. Toshkent: Adabiyot, 324 b.
6. Sabirov M.M. “*Rangshunoslik va kompozitsiya asoslari*”. 2021. Toshkent. 2021. 192 b.
7. Science shine international scientific journal, 1-son, 10.05.2024.
8. Sharh va izohlar, 3-tom, 7-11 b.
9. Азизовна, Ю.С. Формирование чувства уважения у студентов. *Журнал NX*, 1026-1028.
10. Buriyeva F. (2024). Faxriyor ijodiy olami: individual uslub va poetik mahoratning shakllanish tadriji. *news of the nuuz*, 1(1.6. 1), 303-305.
11. Nazarova, X.G. (2024). Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostonidagi hikoyatlarda tasavvuf talqining yorqinligi. *Research Focus*, 3(11), 46-50.
12. Муродовна, Р. М. Использование водных объектов при проектировании ландшафтных объектов. *JournalNX*, 125-128.
13. Sharipova, S. (2025). Hikmatlarda iqtibos she’riy san’atining qo ‘llanilishi. Jahon ilmiy qarashlarini tahlil qilish Xalqaro ilmiy jurnal , 3 (1), 168-171.